

O'ZBEK TILIDAGI GERMANIZMLARNING LINGVOKOGNITIV TADQIQI VA ULARNING TARAQQIYOT YO'LIDAGI TARIXIY BOSQICHLARI

Abdullayeva Gulsanamxon

Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi

Dehqonov Bahodirjon

*Ilmiy rahbar:, Farg'ona davlat universiteti rus tili metodikasi kafedrası
o'qituvchisi Email: gabdullaeva080@gmail.com +998910480438*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishi o'zbek tilidagi nemis tilidan o'zlashgan qatlam — germanizmlarning kirib kelish tarixi va kognitiv tahliliga bag'ishlanadi. Maqolada nemis so'zlarining rus tili orqali bilvosita o'zlashishi Pyotr I islohotlaridan boshlab, Markaziy Osiyo hududidagi lisoniy interferensiya jarayonlarigacha bo'lgan davr tahlil qilinadi. Shuningdek, nemis tilini o'rganishda rus tili tajribasining ahamiyati lingvokognitiv jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *germanizm, bilvosita o'zlashish, lingvokognitiv tahlil, etimologiya, Ibrat Academy, kelishik tizimi, jins kategoriyasi.*

Аннотация: *Данное исследование посвящено истории и когнитивному анализу германизмов в узбекском языке. В статье анализируется процесс косвенного заимствования немецких слов через русский язык, начиная с реформ Петра I и заканчивая процессами языковой интерференции в Центральной Азии. Также лингвокогнитивно обосновывается значение опыта русского языка в изучении немецкого языка.*

Ключевые слова: *германизм, косвенное заимствование, лингвокогнитивный анализ, этимология, Ibrat Academy, система надежей, категория рода.*

Abstract: *This research work is devoted to the history and cognitive analysis of Germanisms in the Uzbek language. The article analyzes the process of indirect borrowing of German words through the Russian language, starting from the reforms of Peter I to the processes of linguistic interference in Central Asia. Also, the importance of the Russian language experience in learning the German language is linguistically and cognitively justified.*

Keywords: *Germanism, indirect borrowing, linguocognitive analysis, etymology, Ibrat Academy, case system, gender category.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Til millatning ma'naviy xazinasi bo'lib, uning har bir so'zida tarixiy jarayonlar, madaniy aloqalar va ijtimoiy taraqqiyot izlari muhrlangan. Davlat, til va millat tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining taraqqiyoti ikkinchisiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Akademik A. Nurmonov ta'kidlaganidek, "til o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki u boshqa tillar bilan bo'lgan kontakt (aloqa) natijasida boyib boradi" [1]. O'zbek tili lug'at tarkibidagi germanizmlar bu jarayonning yorqin namunasi.

O'zbek va nemis xalqlari geografik jihatdan uzoq joylashganiga qaramay, ularning tillari o'rtasidagi aloqa uchinchi til — rus tili orqali amalga oshgan. Bu jarayon tilshunoslikda "bilvosita o'zlashish" deb ataladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekistonda nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bir paytda, mavjud leksik qatlamdan metodik maqsadlarda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, bugungi globallashtirish davrida nemis texnologiyalari va ilm-fanning o'zbek jamiyatiga kirib kelishi germanizmlarning iste'mol doirasini kengaytirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Akademik A. Nurmonov o'zining tadqiqotlarida tillarning dialektik rivojlanishini, ularning bir-biriga ta'sirini lisoniy va ijtimoiy omillar orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, tillarning boyishi ijtimoiy harakatlar va davlatlararo aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir [1]. Shuningdek, professor Sh. Safarov "Kognitiv tilshunoslik" asarida o'zlashma so'zlarning inson ongida idrok etilishi (konseptuallashtirish) jarayonini chuqur tahlil qilgan. Safarovga ko'ra, bir tildan ikkinchisiga o'tgan so'z nafaqat yangi nom, balki yangi madaniy freymni ham olib kiradi [2].

METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqotda qiyosiy-etimologik tahlil va kognitiv modellashtirish metodlaridan foydalanildi. O'zbek tilidagi germanizmlar ularning nemis tilidagi asl variantlari bilan solishtirildi. Rus tili vositachilik roli kognitiv-metodik jihatdan o'rganildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida kundalik hayotda, qurilishda va ta'limda keng qo'llaniladigan 100 dan ortiq terminlar tanlab olindi.

NATIJALAR (RESULTS)

Nemis so'zlarining kirib kelish mexanizmlari tarixiy nuqtai nazardan Rossiya imperiyasining g'arblashish jarayoniga borib taqaladi. Pyotr I davridan boshlab harbiy, texnik va madaniy sohalarida nemis terminologiyasi rus tiliga ommaviy kirib keldi. Keyinchalik, Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi va SSSR tarkibiga kiringach, bu terminlar tayyor lisoniy birliklar sifatida o'zbek tiliga o'zlashdi.

Mustaqillik yillaridan keyin esa germanizmlar o'zlashishi ijtimoiy harakatlar va do'stona aloqalar orqali ham ortib borishi o'zgarmadi. Masalan, biz ko'p ishlatadigan qurilish so'zlaridan bo'lgan "shifer" yoki "shpatel" so'zlarini ko'pchilik so'f ruscha deb o'ylaydi, aslida esa ularning ildizi nemis tiliga borib taqaladi. Bundan ko'rinib turibdiki, kundalik ishlatadigan:

- "rakovina" (reckwein) - yuvgich,
- "shlang" (Schlange) - egiluvchan quvur,
- "shkaf" (Schrack) - javon,
- "vanna" (wanne) - cho'milish idishi,
- "mufta" (Muffe) - birlashtiruvchi qism,

- "shtraf" (Strafe) - jarima,
- "yarmarka" (Jahrmarkt) - yillik bozor kabi germanizmlar muloqotni tushunarli va samarali qilishga ko'maklashyapti. O'zbekiston ta'lim tizimida ayniqsa maktab, texnikum va oliygohlarida ishlatiladigan terminlarning katta qismi aynan nemis tilidan rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan va o'zlashgan. Bu so'zlar biz uchun shunchalik tanishki, ularning hatto chet el so'zlari deb ham o'ylamaymiz.

Tadqiqot davomida aniqlangan germanizmlarni quyidagi sohalar kesimida tasniflash mumkin:

I. O'quv jarayoni terminlari:

1. Ekzamen (Examen) - imtihon
2. Diktant (Diktat) -
3. Referat (Referat) - ma'ruza matni
4. Konspekt (Konspekt) - qisqacha qaydlar
5. Tezis (These) - ilmiy ishning asosiy bndlari
6. Magistr (Magister) - ilmiy daraja turi
7. Bakalavr (Bakkalaureus) — oliy ta'limning birinchi bosqichi.
8. Kandidat (Kandidat) — fan nomzodi.
9. Kurs (Kurs) — o'quv yili yoki yo'nalishi.
10. Seminar (Seminar) — guruh bo'lib o'tkaziladigan amaliy dars.
11. Praktika (Praktik) — amaliyot davri.
12. Metod (Methode) — o'qitish usuli.
13. Sertifikat (Zertifikat) — hujjat, guvohnoma.
14. Attestat (Attestat) — maktabni bitirganlik haqida hujjat.
15. Tabel (Tabelle) — o'quvchi baholari ro'yxati.
16. Grafik (Graphik) — dars jadvali yoki chizma.
17. Shtamp (Stampfe) — muhr, tasdiq belgisi.

II. Auditoriya va o'quv qurollari:

1. Auditoriya (Auditorium) — ma'ruza xonasi.
2. Laboratoriya (Laboratorium) — tajriba xonasi.
3. Shtativ (Stativ) — laboratoriya asboblari uchun tayanch.
4. Sirkul (Zirkel) — doira chizadigan asbob.
5. Masshtab (Maßstab) — o'lchov nisbati.
6. Globus (Globus) — yerning kichraytirilgan modeli.
7. Bloknot (Blocknote) — qaydlar daftari.
8. Rukzak (Rucksack) — o'quvchilarning yelka sumkasi.
9. Format (Format) — qog'oz yoki fayl o'lchami.
10. Shrift (Schrift) — kompyuter yoki kitobdagi yozuv turi.
11. Flomaster — rangli yozuv quroli.

III. Ma'muriyat va darajalar:

1. Rektor (Rektor) — universitet rahbari.
2. Dekan (Dekan) — fakultet rahbari.

3. Professor (Professor) — yuqori ilmiy unvon.
4. Dotsent (Dozent) — o'qituvchilik ilmiy unvoni.
5. Fakultet (Fakultät) — universitet bo'limi.
6. Kafedra (Kathedra) — ixtisoslashgan o'qituvchilar bo'limi.
7. Statsionar (Stationär) — kunduzgi o'qish shakli.
8. Arxiv (Archiv) — eski hujjatlar saqlanadigan joy.

IV. Boshqa Akademik atamalar:

1. Abstrakt (Abstrakt) — tezisning qisqacha mazmuni.
2. Plagiat (Plagiat) — ilmiy ko'chirmachilik.
3. Ob'ekt (Objekt) — tadqiqot narsasi.
4. Punkt (Punkt) — rejadagi band yoki nuqta.
5. Ball (Ball) — baholash o'lchovi.
6. Marka (Marke) — sifat belgisi.
7. Litsenziya (Lizenz) — faoliyat uchun ruxsatnoma.
8. Anketa (Anquete) — so'rovnoma varaqasi.

MUNOZARA (DISCUSSION)

Germanizmlarning o'zlashishi faqat lisoniy hodisa emas, balki til o'rganuvchilar uchun strategik imkoniyatni ham anglatadi.

Yuqoridagi keltirilgan so'zlarning katta qismi o'zbek tilida va nemis tilida bir xil yozilsa ham, ular og'zaki nutqida boshqacha talaffuz qilinadi.

Albatta bu so'zlar chet elda ta'lim olayotganlar uchun til to'sig'ini yengishda va yanada yaxshi tushunishda katta ruhiy ustunlik beradi.

Ushbu tillar o'rtasidagi bog'liqlik va o'zbek, rus tillarining nemis tilini o'rganishdagi ahamiyati ularning grammatik jihatdan o'xshashliklari borligidadir.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun nemis tili grammatikasidagi eng qiyin bosqich bu kelishiklar tizimi va artikllarning qo'llanilish usullari hisoblanadi. Bunday qiyinchiliklarning asosi o'zbek tilida "rod" kategoriyasining mavjud emasligidir. Rus tilini biladigan o'quvchi uchun esa bu mashaqqatli emas.

O'zbek tilida "rod" (jins) kategoriyasining mavjud emasligi nemis tilidagi der/die/das artikllarini tushunishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Biroq, rus tilini biladigan o'quvchilar uchun bu muammo oson yechiladi.

Nemis tilidagi 4 ta kelishik (Nominativ, Genitiv, Dativ, Akkuzativ) va rus tilidagi 6 ta kelishik o'rtasidagi mantiqiy muvofiqlik til o'rganish tezligini oshiradi.

Tarixiy jihatdan rus tili nemis tilidan juda ko'p so'z o'zlashtirgan. Shuning uchun ham nemischa so'zlarning deyarli yarmi tarjimasiz qisman tushunish mumkin. Masalan, quyidagi matnda buni ko'rishimiz mumkin:

"Ushbu referatda tilshunoslikning muhim sohalari bo'lmish morfologiya va sintaksis masalalari ko'rib chiqiladi.

Turli tillarning grammatik qurilishi tadqiqot ob'ekti qilib olingan.

Muallif o'z tezislariida tilning leksik qatlamidagi etimologik o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Xususan, neologizmlar va arxaizmlar orasidagi semantik farqlar talqin etilgan.

Yakuniy xulosalar ilmiy munozaralarda himoya qilish uchun tavsiya etiladi."

"In diesem Referat werden Fragen der Morphologie und Syntax behandelt, die wesentliche Bereiche der Sprachwissenschaft darstellen. Als Untersuchungsgegenstand dient der grammatische Bau verschiedener Sprachen.

In seinen Thesen analysiert der Autor etymologische Veränderungen innerhalb der lexikalischen Ebene der Sprache. Insbesondere werden die semantischen Unterschiede zwischen Neologismen und Archaismen interpretiert. Die abschließenden Schlussfolgerungen werden zur Verteidigung in wissenschaftlichen Disputen empfohlen."

Sh. Safarov ta'kidlaganidek, lisoniy hodisalarning kognitiv tahlili o'quvchiga tilni struktura sifatida emas, balki tushunchalar tizimi sifatida ko'rishga yordam beradi. Masalan, "Abstrakt", "Plagiat", "Ob'ekt" kabi so'zlarning ma'nosini tushunish o'quvchiga ilmiy diskursda ruhiy ustunlik beradi.

O'zbek o'quvchisi nemis tilidagi so'z birikmalarini tushunishda o'zbekcha kelishiklarga, so'zning mantiqiy jinsini va artikllarni tushunishda esa ruscha "rod" larga tayanadi.

Bu kombinatsiya o'z o'rnida o'rganish tezligini ikki barobar oshirishi, shubhasiz.

Bugungi kunda nemis tilini o'rganish uchun eng sifatli va chuqur tushuntirilgan darsliklar, metodik qo'llanmalar hamda video darsliklar rus tilida juda ko'p.

Lekin bunday manbalar ham o'zbek tilida ham shakllantirilmogda.

Hozirgi kunda "Ibrat Academy" kabi platformalar orqali nemis tilini o'zbek tilida o'rganish metodikasi takomillashayotgani diqqatga sazovordir.

Bu platformalar rus tilidagi boy metodik tajribani o'zbek mentaliteti va lisoniy imkoniyatlariga moslashtirmogda.

XULOSA (CONCLUSION)

O'zbek tilidagi germanizmlar uzoq tarixiy va siyosiy jarayonlarning mahsulidir. Rus tili bu jarayonda shunchaki ko'prik emas, balki terminlarning semantik va grammatik jihatdan shakllanishida "psixologik poydevor" vazifasini o'tagan. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbek tili lug'at tarkibiga rus tili orqali kirib kelgan 500 dan ortiq germanizmlar nemis tili leksikasining qariyb 20-30 foizini oson o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Rus tilidagi "rod" va kelishiklar tizimi nemis tili grammatikasini o'zlashtirishda 30-40 foiz vaqtni tejash imkonini beruvchi strategik vositadir.

3. Zamonaviy ta'lim platformalari (masalan, Ibrat Academy) ushbu bilvosita bog'liqlikdan unumli foydalanishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. Лингвистик таълимотлар тарихи. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 334 б.

2. Safarov Sh. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
4. Ibrat Academy elektron platformasi ma'lumotlari (2023-2024).
5. Duden – Das Herkunftswörterbuch: Etymologie der deutschen Sprache.